

TURKIYA DAVLATIDA AMALIY O‘Q OTISHDA “STRESS” VAZIYATLARNI OLDINI OLISH CHORALARI VA ULARNI QO‘LLASH TAJRIBALARI HAMDA DAVLATIMIZDAGI HARBIY OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDAGI O‘Q OTISH TAYYORGARLIGI O‘RGATILISHI

B. M. Mirvohidov, Sh. A. Raximov, H. U. Murodullayev

Jamoat xavfsizligi universiteti 4-bosqich kursantlari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliy o‘q otish mashg‘ulotlarida yuzaga keladigan stress holati hamda adaptatsiya jarayoni haqida, qolaversa, Turkiya davlati KOMANDO maxsus vazifalarni bajaruvchi qo‘shinlarining mashg‘ulotlari hamda undagi o‘q otish tayyorgarligiga bo‘lgan e‘tibor haqida ba’zi mulohazalar keltirilgan

Kalit so‘zlar: O‘q otish tayyorgarligi, adaptatsiya, stress, KOMANDO, maxsus vazifalar, amaliy mashg‘ulot, tir, pnevmatik tir

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются стрессовая ситуация и процесс адаптации, возникающие при практической стрельбе, а также при подготовке спецподразделений турецкого государственного КОМАНДО и ориентация на стрелковую подготовку.

Ключевые слова: стрелковая подготовка, адаптация, стресс, КОМАНДО, специальные задания, практические занятия, шина, пневматическая шина.

ABSTRACT

In this article, the stress situation and the adaptation process that occur in practical shooting training, as well as the training of the special forces of the Turkish state COMMANDO and the focus on shooting training are discussed. comments are given

Keywords: shooting training, adaptation, stress, COMMANDO, special tasks, practical training, tire, pneumatic tire

KIRISH

Harbiy xizmatchilar bu davlatdagi tinchlik va barqarorlikni taminlashda asosiy vositalardan hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning yetuk malakali professional kadrlar sifatida shakllanishi orqali yuksak salohiyatli armiya shakllanadi. Bizning armiyamiz 1992-yil 14-yanvarda tashkil topganidan boshlab, o‘z saflarini yetuk kadrlar bilan to‘ldirishga

va ularni jangovar shayligi hamda harbiy bilimlarini doimo oshirish va mustahkamlashga qaratilgan. Hozirgi kunga kelib yetuk malakali ofitserlar va serjantlar tayyorlash dasturlari takomillashtirilgan bo'lib, xalqaro miqiyosda bo'layotgan "Armiya o'yinlari"da davlatimiz harbiy xizmatchilari qo'lga kiritishayotgan faxrli o'rinlardan dasturlarning natijalari namoyon bo'lmoqda.

ADABIYTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dunyoning rivojlanish tendensiyasidan ortda qolmagan holda armiyaning ham rivojlanib borishi xavfsizlik va tinchlikni taminlovchi asosiy faktorlardan bo'lishi kundek ravshan. Harbiy oliy ta'lim muassasalari bu borada yetakchi o'rinda turadi. Harbiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olgan ofitserlar o'z yo'nalishi bo'yicha yuksak bilimlarga ega bo'lgan holda armiya safida xizmat qilayotgan askar va serjantlarning malakasini oshirish va ularni boshqarish ko'nikmalarini egallashlari muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalaridagi kursantlarning dastlabki harbiy hayotga adaptatsiya jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak kursantlar: taktik tayyorgarlik, muhandislik tayyorgarligi, maxsus taktik tayyorgarlik va harbiy topografiya qolaversa boshqa harbiy fanlarga qiziqish bilan munosabatda bo'lishadi va dastlabki bilimlarni egallashlari oson kechadi. Ammo o'q otish tayyorgarligi faniga keladigan bo'lsak, dastlabki o'q otish mashqlarini bajarish oldidan kursantlarda stress holati vujudga keladi. Ushbu holatni oldini olish va bartaraf etish choralarini izlashdan oldin dastlab uning ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak:

Stress (inglizcha: stress-"bosim", "kuchlanish", "tanglik") – odam va hayvonlarda kuchli ta'sirotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, asabiylik holati. Stress – bu gomeostazni buzish bilan tahdid qiluvchi turli ekstremal omillar ta'sirida yuzaga keladigan tananing o'ziga xos bo'lmagan reaksiyasi, asab va endokrin tizimlari faoliyatida stereotipik o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Organizmda har xil ta'sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya. "Stress" termini kanadalik patolog G.Selye ta'riflab, tibbiyotga kiritgan (1936). Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb, ular ta'sirida organizmda ro'y beradigan o'zgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atadi. Stresslar stressorlar ta'siriga qarab 2 xil guruhga bo'linadi: fizik (issiq, sovuq, shikastlanish va boshqalar) va psixik (qo'rquv, qattiq tovush, o'ta xursandchilik).

Stress jarayonini boshidan kechirganda harbiy xizmatchining asab tizimida tezashtirilgan va kuchaygan mobilizatsiya jarayonlari bilan birga keladigan nospetsifik moslashuv sodir bo'ladi. Stress ham ijobiy ham salbiy bo'lishi mumkin. Ko'pincha gap uning ikkinchisi haqida ketadi. Kutilmagan va juda hissiy jihatdan yorqin va ijobiy omillarni

ifodalashi mumkin bo'lgan hamda insonning kuchini safarbar qilishga hissa qo'shadigan birinchisidan farqli o'laroq, ikkinchi tur qayg'u, befarqlik, umidsizlik, charchoq, depressiya keltirib chiqaradi, odamning sog'ligiga putur yetkazadi.

O'q otish tayyorgarligi fani doirasida dastlabki o'q otish mashqlarini bajarishda kelib chiqadigan stress holatini yuqorida takidlangan psixik stress turkumiga kiritish maqsadga muvofiq. Bu holatni oldini olish uchun mashg'ulot doirasida bajariladigan o'q otish mashqlariga nisbatan kursantlarda adaptatsiyaning shakllanishi lozim. Agarda yuqorida takidlangan islohotlar o'tkazilmasa kursantlar dars mashg'ulotlari davomida salbiy stress holatiga tushib qolishlari mumkin.

Ushbu holatni oldini olish uchun kursantlarda o'q otish mashqlariga nisbatan adaptatsiya shakllanishi darkor. Adaptatsiya terminiga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak:

Adaptatsiya (lot. adoptatio - moslashuv) 1) organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi; 2) sezgi a'zolarining o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o'zgarishi (mas ko'zning qorachig'i qorong'ulikka moslashuvi)¹. Qo'zg'atuvchining ta'sir kuchi o'zgarishi bilan sezgirlik ham o'zgaradi. Qo'zg'atuvchi sust ta'sir qilganda sezgirlik ortadi, kuchli ta'sir etganda esa kamayadi. Adaptatsiya hodisasi hamma tashqi sezgilar (ko'rish eshitish, hid, ta'm, badan sezgisi) ga xosdir. Taktik, harorat, hid va ko'rish sezgilarida kuchli, eshitish va og'riq sezgilarida esa kuchsiz adaptatsiya jarayonlari kechadi.

O'q otish tayyorgarligi kursantlarning jangovar tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sanaladi va boshqa ko'plab harbiy fanlar bilan bog'liq. Masalan taktik tayyorgarlik hamda maxsus taktik tayyorgarlik fanlari bilan.

Shu sababli o'q otish tayyorgarligini chuqur o'zlashtirish, shaxsiy tarkibga zamonaviy o'q otar qurollari hujum va mudofaada qo'llaniladigan granatalari, moddiy qismlari, o'q otar qurollardan hamda jangovar mashinalarning qurol aslahalaridan o'q uzish nazariyasi, otish asoslari va ballistikadagi asosiy ma'lumotlarni, qurol-aslahalarning tuzulishi va ularni avaylab asrash masalalari, qurollardan o'q uzish usllari va qoidalari o'rgatishni mukammal o'rgatish orq kursantlar jangovar tayyorgarligining yanada yuqori bo'lishiga erishish mumkin.

Horij davlatlarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Turkiya jandarmeriyasi "KOMANDO" maxsus vazifalar bajaruvchi qo'shinlarda otish mashqlarini o'rgatish uchun elektron tirlar, pnevmatik tirlar, ov qurollari hamda so'ngida jangavor qurollar mavjud. Jangavor qurollardan yuqori aniqlikda va puxta o'q otishni amalga oshirish uchun o'rganuvchilar ketma-ketlikda

¹ Inshin J.J., Bessonov V.I. Methodological aspects of teaching cadets to shoot from standard weapons using shooting simulators // Bulletin of military education. 2019. №2.

adaptatsiya qilinadi. Bu usul yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Qolaversa o'rganuvchida salbiy stress holatlari hamda otish tayyorgarligi mashg'ulotidan begonalashuv kelib chiqmaydi.

“KOMANDO” maxsus vazifalarni bajaruvchi qo'shinlarining kurslar jadvaliga e'tibor qaratadigan bo'lsak 18 ta kurs turidan 6 tasida o'q otish, qurollar bilan ishlash amallari bajariladi. Ushbu kursga kirishishdan oldin o'rganuvchilar dastlabki tayyorgarlik bosqichidan o'tishadi². Dastlabki tayyorlov bosqichida o'rganuvchilar elektron tirlardan, pnevmatik tirlardan va ov multqlaridan foydalanadilar so'ngida esa jangovar qurollardan o't ochish amallari bajariladi. Dastlabki otish mashqlari baholanmaydi va eng oddiy mashq turlari tanlanadi. O'rganuvchidan quyidagilar talab qilinadi: mashq bajarish tartibini bilishi, avtomatning ishlash printsipini va taktik texnik tavsifini bilishi hamda xavfsizlik qoidalari bilan tanishgan bo'lishi. Dastlabki tayyorlov bosqichidan so'ng o'rganuvchilar ishchi dastur asosida quyidagi mashg'ulotlarda: Maxsus operatsiyalar taktikasi va texnikasi, Turar-joy hududida maxsus operatsiyalar, Nozik obyektlar va shaxslarni himoya qilish, Avtomobilda qochganda antiterror operatsiyalari, Maxsus operatsiyalar snayper kursi, Jandarmeriya maxsus operatsiya qo'shinlari fundamental kursi fundamental kurslarida jangovar va imitatsion patronlardan foydalangan holda o'z ko'nikmalarini shakllantirib, oshirib boradilar.

E'tiborga molik yana bir jihatga to'xtaladigan bo'lsak, suniy ravishda stress holatini yuzaga keltirish maqsadida mashg'ulotlarda xizmat itlaridan foydalangan holda vaziyatlar vujudga keltiriladi. Bu orqali harbiy xizmatchilarda mobil adaptatsiya shakllantiriladi. Amaldagi tajribani qo'llash, maxsus vazifalarni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli nostandart vaziyatlarda harbiy xizmatchiga o'zini munosib tutishga yordam beradi³.

T/r	Kurs nomi	O'qtuvchi		Rejadagi soati
		Davomiyligi / Hafta	Kvotalar	
1.	Maxsus operatsiyalar taktikasi va texnikasi	2	30	1
2.	Qayiq Kursi	1	20	6
3.	Vertolyotni yo'q qilish va yig'ish ekspertizasi	3	24	2

² “Turkiya janadarmeriyasi” jurnali JXU 2021 -yil.

³ “Turkiya janadarmeriyasi” jurnali JXU 2021 -yil.

4.	Turar-joy hududida maxsus operatsiyalar	4	25	2
5.	Nozik obyektlar va shaxslarni himoya qilish	4	40	8
6.	Avtomobilida qochganda antiterror operatsiyalari	1	20	6
7.	Maxsus operatsiyalar snayper kursi	4	20	4
8.	Jandarmeriya maxsus operatsiya qo'shinlari fundamental kursi	8	159	2
9.	Tog' qidiruv va qutqaruv (qishda)	3	25	2
10.	Tog' qidiruv va qutqaruv (yozda)	3	25	3
11.	Tabiiy ofatlarda qidiruv va qutqaruv	3	25	3
12.	Sho'ngish rahbarligi	3	10	1
13.	Bot operatori	2	15	6
14.	Oldindan asosiy fundamental sho'ng'ish	8	15	3
15.	Jinoyat joyidan sho'ng'ish	4	15	2
16.	Erkin parashut asosiy kursi	6	15	2
17.	Asosiy tog' balandlik kursi	1	30	6
18.	Asosiy darajadagi ko'chki ekspertizasi kursi	1	25	1

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, hozirgi kunda zamon bilan hamnafas bo'lgan holda Qurolli Kuchlar tizimida otish tayyorgarligiga bo'lgan e'tiborni oshirish va harbiy xizmatchilarga zamonaviy qurol aslahalardan samarali foydalanish asoslarini o'qitish, hamda ularni dastlabki amaliy otish mashqlaridan boshlab tajribalarini shakllantirib oshirib borish darkor. Adaptatsiya jarayonini yanada moslashtirish uchun, shuningdek harbiy xizmatchilarning sun'iy moslashishini yanada oshirish maqsadida Qurolli kuchlarimizda qo'llaniladigan PP-30 (immitatsion shashkalari)dan ham foydalanish juda katta foyda beradi. Amaldagi haqiqiy granata va kichik hajmli trotil shashkalaridan jangovor qo'llash holatiga eng yaqin bo'lgan holat sun'iy tarzda yaratiladi va harbiy xizmatchilarning ushbu holatga yaqin bo'lgan qolaversa, xavfsiz usuli hisoblanadi. Turkiya tajribasiga asoslangan holda mobil adaptatsiyani shakllantirish maqsadida xizmat itlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu ustuvor vazifalarni bajarish orqali armiyamiz saflarida professional kadrlarni tayyorlash bobida yana bir ilg'or qadam tashlagan bo'lamiz.

REFERENCES

1. Otish tayyorgarligi va zamonaviy metodikasi
2. <https://www.Pedagoglar.uz>
3. Abramkin B.M., Korzhov V.M., Dombrovsky V.A. Methodical techniques for practicing pistol shooting techniques using laser shooting simulators. Novosibirsk, 2005.
4. Bikaev V.Sh., Shiryaev A.N. Formation of readiness of cadets of NVI VV
5. 3. Inshin J.J., Bessonov V.I. Methodological aspects of teaching cadets to shoot from standard weapons using shooting simulators // Bulletin of military education. 2019. №2.
6. Stepanyuk V.I., Lyakhov P.V. Training in shooting from the passenger compartment of a vehicle at the lessons of fi repower training of cadets
7. “Turkiya janadarmeriyasi” jurnali JXU 2021 -yil.

